

## O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

*Farg 'ona ilg'or kasbiy maxorat texnikumi*

*10-25 gurux o'quvchisi*

***Jorayev Azizbek Luqmonjon o'g'li***

*Farg 'ona ilg'or kasbiy maxorat texnikumi*

*10-25 gurux o'quvchisi*

***Toshpo'latov Javohirbek Akmaljon o'gli***

*Farg 'ona ilg'or kasbiy maxorat texnikumi*

*10-25 gurux o'quvchisi*

***Bo'stonova Nigina Abdurashid qizi***

**Annotatsiya:** Iqtisodiy o'sish to'liq bandlilik sharoitiga mos keluvchi potensial ishlab chiqarish darajasini uzoq muddatli ko'payishi tendensiyasini anglatadi. Iqtisodiy o'sish haqiqiy va potensial YaIM hajmining oshishini bildiradi. Iqtisodiy o'sish muammosini o'rganish natijasida real ishlab chiqarish tizimi duch keluvchi - cheklangan resurslardan samarali foydalanish muammosiga echim topiladi. Demak, iqtisodiy o'sish omillari va ular samaradorligini o'rganish hamda tahlil qilish jamiyat oldidagi eng dolzarb muammolardan biridir. Iqtisodiy o'sish nafaqat mamlakat real daromadlarining o'sishi, shuningdek, jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlarning o'sishini ham anglatadi. Shu sababli ham iqtisodiy o'sish ikki xil usul bilan o'lchanadi. Birinchi usulda iqtisodiy o'sish real YaIM ni o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umumiy iqtisodiy imkoniyatlari dinamikasini aniqlash uchun ishlatiladi. Har bir mamlakat iqtisodiy o'sishga intiladi, chunki iqtisodiy o'sish, birinchidan, milliy mahsulot hajmi va daromadning ko'payishiga, ikkinchidan, resurslardan samarali foydalanishga, uchinchidan, yangiyangi ehtiyojlar va imkoniyatlarning paydo bo'lishiga, to'rtinchidan, xalqaro bozorlarda mamlakat obro'sining oshishiga olib keladi.

**Kalit so'zlar:** Inflyatsiya, byudjet taqchilligi, yalpi ichki mahsulot, real daromad, iqtisodiy o'sish

Mamlakatimizni 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

Shuningdek, inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot

vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rildi.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

So'nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiyma'rifiy asoslari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi» PF-60-son

Farmoni tasdiqlandi. Mazkur Staretegiya 100 ta maqsaddan iborat bo'lib, uning 21-maqsadi “Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni-1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming

AQSh dollaridan oshirish hamda «daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar» qatoriga kirish uchun zamin yaratish” deb nomlanib, uning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilab o'tilgan.

Birinchidan, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va yillik inflyatsiya darajasini 2023 yilgacha bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish;

Ikkinchidan, davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish va 2023 yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta'minlash;

Uchinchidan, har bir tuman byudjetining kamida 5 foizini «Fuqarolar byudjeti» dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzarb muammolarni yechishga sarflashni tashkil qilish;

To'rtinchidan, davlat qarzini boshqarishda yiliga yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdori 4,5 milliard AQSh dollaridan oshib ketmasligini ta'minlash.

Ma'lumki, jahon amaliyotida mamlakatlarning yillar bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ularda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari orqali aniqlanadi. YaIMning o'sish sur'ati odatda oldingi yilga nisbatan foizlarda o'lchanadi. Jumladan, O'zbekistonda 2023 yilda yalpi ichki mahsulot oldingi yilga nisbatan 6,0 foizga o'sib, uning mutlaq hajmi 1 066 569,0 mlrd. so'mga teng bo'lgan Agar o'rtacha o'sish sur'atlari 2000-2003 yillarda 4 foizdan, 2004-2006 yillarda 7,3 foizdan, 2007-2008 yillarda esa 9,2 foizdan yuqori darajada kuzatilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2009-2016 yillar davomida 8 foizdan yuqori bo'lib, 2019 yilda esa 5,6

foizni tashkil etgan. Faqat koronavirus pandemiyasining iqtisodiyotga salbiy ta'siri natijasida 2020 yilda YaIMning o'sish sur'ati oldingi yilga nisbatan 1,6%ni tashkil etgan.

Albatta, bu o'rinda dunyodagi murakkab vaziyat – jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, koronavirus pandemiyasining ro'y berishi, uning jahondagi barcha mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston iqtisodiyotiga ham salbiy ta'sirini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Chunki, mamlakatimizda chuqur o'ylangan holda ishlab chiqilgan hamda izchil ravishda olib borilayotgan samarali iqtisodiy siyosat global inqirozning iqtisodiyotimizga salbiy ta'sirini ahamiyatli darajada “yumshatib”, shunday murakkab sharoitda ham YaIMning yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini saqlanib qolishini ta'minladi. Shunga ko'ra, agar jahon oliyaviy-iqtisodiy inqirozi ro'y bermaganida O'zbekistondagi o'sish sur'atlari yanada yuksakroq bo'lardi, deyishga yetarli asos bor. Ta'kidlash joizki, iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi, uning yuqori sur'atlarini ta'minlovchi omillar juda ko'p harakatga keltirish hisoblanadi. O'zbekistonda o'tgan 2 yilda barqaror va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlagan omillar qatorida quyidagilarni keltirish mumkin.

Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, 7 raqobatni kuchaytirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan dasturiy vazifalarning o'z vaqtida bajarilayotgani .

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

YaIMning to'g'ri va aniq hisoblanishi har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, uning jahon hamjamiyatiga kirib borish imkoniyati hamda jahon iqtisodiyotidagi tutgan o'rnini belgilab beradi. Shu sababli har bir mamlakat o'z hududida yaratilayotgan tovar va xizmatlar hajmini imkoni boricha to'laroq hisoblashga harakat qiladi . Bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlarida oldiga YaIMni hisoblashning yangi qoidalariga o'tish talabi qo'yilmoqda. Yangi qoidalariga o'tishda bo'ladigan o'zgarishlar milliy hisoblar tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar bog'liq bo'lib, milliy hisoblar tizimidagi asosiy o'zgarishlar quyidagilardan iborat:

- ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning (ITTKI) oraliq iste'moldan yalpi investitsiyalar sifatida hisobga olinishiga o'tish;
- uy-joy egalari tomonidan yaratiladigan va iste'mol qilinadigan shartli rentani hisobga olish;
- harbiy xarajatlarni yalpi kaptial qo'yilmalar sifatida hisobga olish;
- moliyaviy xizmatlarni hisobga olishni takomillashtirish va bu orqali YaIM hajmining to'liq hisobga olinishini ta'minlashdir.

### **ADABIYOTLAR:**

1 Mamatov.A.A. Shakllanayotgan bozor munosabatlari tizimida yalpi ichki mahsulot. Iqt .fan. dok. diss. avtoref. –T.: UzMU, 2002.

2.Olmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi.

Darslik. T.: “IQTISODMOLIYA”, 2014. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №

3. may-iyun, 2016 yil [www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz)

4.To'xliyev N.T. va boshq. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: O'zbekiston milliy ensklopediyasi , 2006 .

5Mambetjanov Q.Q. Yalpi ichki mahsulotning harakat bosqichlarini hisoblash usullarini takomillashtirish yo'nalishlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. –

TDIU, 2012. №

6“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2016 yil